XALQ DEPUTATLARI XOVOS TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 1-aprel VI-72-43-9-129-K/24 Xovos tumani

Xovos tuman mahalliy byudjetining 2024-yil boshiga hosil bo‘lgan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi”ning 126-moddasiga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.Xovos tuman hokimining tuman mahalliy byudjetining shakllangan qo‘shimcha manbalari (erkin qoldiq) hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritilgan taklifi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xovos tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari Xalq deputatlari Xovos tuman Kengashining qarorlari asosida yo‘naltirilishi belgilab qo‘yilsin.

3. Tuman mahalliy byudejtining qo‘shimcha manbalari etib quyidagilar belgilansin:

- tuman byudjetining yil boshida aniqlanadigan erkin qoldiq mablag‘lari;
- tuman byudjeti daromadlarining birinchi-uchinchi hisobot choraklari yakunlari bo‘yicha daromadlarni rejadan oshirib bajarilishidan;
- davlat aktivlarini xususiylashtirishdan tuman byudjetiga tushgan mablag‘lardan;
- “E-IJRO AUKSION” elektron savdo maydonchasida yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tuman byudjetiga tushgan mablag‘lari.

4. Xalq deputatlari Xovos tuman Kengashi mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga:

- erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish 1-ilovaga muvofiq amalga oshirilsin va byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi hamda byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

5. Byudjetdan mablag‘ ajratilgan tashkilot rahbarlariga tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larning maqsadli va samarali sarflash vazifasi hamda sarflangan mablag‘lar to‘g‘risidagi hisobotlarni Xalq deputatlar Xovos tuman Kengashga taqdim etib borish vazifasi yuklatilsin.

6. Qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘lar tuman hokimligi axborot matbuot xizmati (S.Maxmudov)ga tumanning rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borish vazifasi yuklatilsin.

7. Ushbu qaror ijrosini tashkillashtirish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari I.Nurmatov zimmasiga yuklatilsin.

8. Qaror rasmiy nashrda e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi B.Xudoyberdiyevga yuklatilsin.

Sessiya raisi



RAYIMNAZAROV
G‘OYIBNAZAR
EGAMNAZAROVICH

Xalq deputatlari Xovos tumani
Kengashining
2024-yil 1-apreldagi
VI-72-43-9-129-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Xovos tuman 2024-yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratilishi to‘g‘risida

ming so‘mda

T/r	Xovos tuman byudjet tashkiloti nomi	O‘zgartirishga taklif
	Xovos tumani bo‘yicha jami	**39 730,0**
	jumladan:	
1	*Tuman hokimligini Davlat bojidan qarizdorligini qoplash xarajatlari uchun*	**39 730,0**